



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus  
son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

***Nº S/5 (5) - 2025***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy

kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI  
5-jild, 5- maxsus son (Iyun, 2025). - 302 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Abdullaev Ulug'bek Saydanovich</i>	
O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR .....	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i>	
BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO'RQLASH, QOROVULLIKNI O'TASH VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI TAHLILI .....	15-19
<i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i>	
ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ .....	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Xakimovich</i>	
O'ZBEKİSTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZİDDİYATLI VAZİYAT VA MILLİY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNİNG TARİХİY AHAMIYATI .....	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i>	
THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR .....	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i>	
THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li</i>	
IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI .....	43-48

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>İslamutdinov Vadim</i>	
СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i>	
BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHligini OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i>	
ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i>	
ME'YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI .....	76-83
<i>Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i>	
YURIDIК TA'LIM VA YURIDIК KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djo'raev Anvar Muxamadiyevich</i>	
IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI .....	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i>	
ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i>	
ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i>	
YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i>	
O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i>	
TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i>	
SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI.....	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i>	
ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI.....	126-130
<i>Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин</i>	
ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'alevna</i>	
EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Muqumova Dilafruz</i>	
IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i>	
TAXAYYUL OLAMI TAHILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i>	
ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS .....	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i>	
FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI .....	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i>	
TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLER SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI.....	169-172
<i>Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i>	
BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA .....	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i>	
FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i>	
ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ .....	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i>	
О'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLER OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i>	
THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE" .....	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i>	
SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i>	
HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
Kamola Hatamova	
HUJJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	207-210

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i>	
PROBATSIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI .....	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i>	
METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE .....	217-222
<i>Муталипова Лола Фархадовна</i>	
СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	223-234
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ .	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna</i>	
RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....	242-246

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i>	
RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i>	
MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI .....	253-261
<i>Давыдова Руфина Артуровна</i>	
РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ .....	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i>	
OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI .....	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i>	
DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI:	
O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i>	
TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARING	
KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:	
AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i>	
MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA	
QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i>	
IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI .....	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i>	
TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI .....	296-301

**Received:** 2 June 2025

**Accepted:** 15 June 2025

**Published:** 30 June 2025

*Article / Original Paper*

## **LEGAL REGULATION OF EMPLOYMENT ON DIGITAL PLATFORMS**

**Abdullaeva Parvina Bakhrilloevna**

PhD student of the Law Enforcement

Academy of the Republic of Uzbekistan

E-mail: [parvina\\_abdullahayeva31@mail.ru](mailto:parvina_abdullahayeva31@mail.ru)

**Abstract.** The article analyzes new forms of employment emerging through digital platforms. Platform labor, as an unconventional form of labor relations, involves relationships between employers and contractors that do not correspond to traditional labor contracts. The article discusses giving this form legal status, recognizing hybrid employment, mechanisms for social guarantees and taxation, as well as proposed reforms based on international experiences.

**Keywords:** platform labor, hybrid employment, digital economy, independent activity, legal status.

## **RAQAMLI PLATFORMALAR Dagi BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

**Abdullahayeva Parvina Baxrilloyevna**

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasi

tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Maqlada raqamli platformalar orqali yuzaga kelayotgan yangi bandlik shakllari tahlil etiladi. Platforma mehnati mehnat munosabatlarining noan'anaviy shakli sifatida, ish beruvchi va ijrochi o'rtasidagi munosabatlar an'anaviy mehnat shartnomalariga mos kelmaydi. Maqlada ushbu shaklni huquqiy maqomga ega qilish, gibrildi bandlikni tan olish, ijtimoiy kafolatlar va soliqqa tortish mexanizmlari, hamda xalqaro tajribalar asosida taklif etilayotgan islohotlar muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** platformadagi bandlik, gibrildi bandlik, raqamli iqtisodiyot, mustaqil faoliyat, huquqiy maqom.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N40.1>

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiyotning turli sohalaridagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini qayta tashkil etishga sabab bo'ldi. Bu o'zgarishlar mehnat bozoriga ham ta'sir qilib, an'anaviy ish o'rnlari bilan birga, yangi turdag'i texnologik vositalar orqali amalga oshiriladigan bandlik shakllarini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida masofadan turib ishlashning ommalashishi va raqamli platformalar orqali faoliyat yurituvchi shaxslar sonining keskin ko'payishi, mazkur jarayonni yanada tezlashtirdi. Shuningdek, bu o'zgarishlar mehnat bozorida mutlaqo yangi shakllar paydo bo'lismiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, veb-platformalar orqali xizmat ko'rsatish, onlayn buyurtmalarni bajarish va mobil ilovalarda ishslash singari faoliyatlar so'nggi yillarda ommalashdi. Ammo bu faoliyatlar klassik mehnat munosabatlaridan farq qiladi va qonunchilikda ularga nisbatan aniq huquqiy tariflar mavjud emas. Bu esa ijtimoiy himoya, mehnat huquqlari va soliqqa tortish bilan bog'liq muammolarga sabab bo'lmoqda. Platformalar orqali amalga oshirilayotgan mehnat faoliyati huquqiy tartibga solinmagan holda davom etsa, ijrochilarining mehnat va ijtimoiy huquqlari to'liq himoyalanmay qolishi mumkin. Bunday sharoitda, nafaqat ijtimoiyadolat, balki bozorda

teng raqobat muhitini saqlash masalalari ham kun tartibiga chiqadi. Shu sababli, platforma mehnatining huquqiy maqomini aniqlash va uning samarali huquqiy mexanizmlar orqali tartibga solinishi dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Raqamli platformalardagi bandlik nima degan savolga olimlar o'rtasida har xil qarashlar mavjud. Ayrim olimlar raqamli platformalardagi mehnatni klassik mehnat munosabatlarining bir ko'rinishi sifatida baholaydi. Masalan, N.L. Lyutov bu faoliyatda shaxsiy bog'liqlik, iqtisodiy qaramlik va ish beruvchining nazorati kabi elementlar mayjudligini asos qilib, platforma mehnatini ijara mehnati deb tan olish tarafdori bo'lib keladi [1; 52-b.]. Uningcha, bu faoliyat uchun mehnat shartnomasi tuzilishi kerak va ijtimoiy kafolatlar ham shu asosda taqdim etilishi lozim.

Boshqa olimlar esa, aksincha, platformalar orqali mehnatni fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida qoldirishni ma'qul ko'radi. Masalan, V. De Stefano bu modelni "just-in-time" ishchi kuchi modeli deb atab, frilanserlar yuqori darajada erkinlikka ega ekanini ta'kidlaydi [2; 27-b.]. Uningcha, ular ish vaqt, joyi va bajaradigan topshiriqni tanlashda mustaqil bo'lib, bu ularni an'anaviy xodimdan ajratib turadi.

Shu bilan birga, I.A. Chernilovskaya fikricha, raqamli iqtisodiyot sharoitida platforma mehnati uchun maxsus aralash model – ya'ni, fuqarolik va mehnat huquqlari o'rtasidagi "gibrild" yondashuv mos keladi. U turli vaziyatlarda ijrochining statusi o'zgarishi mumkinligini ta'kidlaydi va buni qonunchilikda e'tirof etish zarurligini aytadi [4; 59-b.].

Platforma mehnatining huquqiy tabiatini aniqlash borasida xalqaro ilmiy jamoatchilikda ham yakdil fikr yo'q. Masalan, A.V. Botvina qayd etadiki, platforma faoliyati klassik mehnat munosabatlari doirasiga mos kelmasa-da, u ijtimoiy xavfsizlik, sug'urta, mehnat muhofazasi kabi omillar tufayli yuridik tartibga solinishi shart [5; 71-b.].

Iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan platformalar orqali mehnatni huquqiy maqomga ega qilish tarafdforlari orasida Germaniya tadqiqotchisi B. Vekerle ham bor. U platformalarni "iqtisodiy tashkilotchi" sifatida tan olish va ijtimoiy majburiyatlarni aynan platformaning o'ziga yuklashni taklif qiladi [6; 44-b.].

O'zbekistonda esa bu masalada professor I. S. Xolmirzaev tomonidan alohida yondashuv bildirilgan: u raqamli mehnat faoliyatiga fuqarolik-huquqiy yondashuvni afzal deb hisoblab, iqtisodiy faollik va fuqarolarning erkinligini ta'minlashni ustuvor deb biladi [7; 23-b.].

Shu olimlar fikrini inobatga olib, aytish mumkinki, raqamli platformalardagi bandlik — bu raqamli texnologiyalar, veb-saytlar, mobil ilovalar yoki onlayn interfeyslar orqali tashkil etilgan mehnat faoliyati shakli bo'lib, unda ish beruvchi va ijrochi o'rtasidagi munosabatlar an'anaviy mehnat shartnomasi asosida emas, balki platformaning vositachiligidida amalgalashiriladi. Ushbu faoliyat shakli shaxsning xizmat yoki ishlarni mustaqil tarzda, ko'p hollarda vaqtinchalik, buyurtma asosida va joylashuvdan qati nazar bajarishi bilan tavsiflanadi. Bu bandlik turi ko'pincha mehnat munosabatlari, fuqarolik munosabatlari belgilarini o'zida mujassam etadi.

Raqamli platformalar orqali ishslashning huquqiy maqomi turli mamlakatlarda har xil tarzda belgilangan bo'lib, ayrim davlatlar bunday faoliyatni to'liq mehnat munosabati deb hisoblasa, boshqalari uni frilans yoki fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida ko'radi [2; 45-b.].

Mehnat huquqi va fuqarolik huquqi o'rtasidagi chegaralarni aniq belgilash maqsadida bir qator mamlakatlarda maxsus huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida platforma orqali ishlashning huquqiy tabiatini yuzasidan yakuniy qaror qabul qilinmagan bo'lsa-da, Germaniya va Fransiyada bu sohani tartibga solish bo'yicha aniq qonunchilik tashabbuslari mavjud [3; 67-b.].

Platforma mehnati deganda veb-saytlar, mobil ilovalar va raqamli interfeyslar orqali bajariladigan xizmat yoki ish turlari tushuniladi. Platforma mehnati ko'p hollarda mustaqil ijrochi bilan buyurtmachi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa bo'lmasligi, ish vaqtini va joyini ijrochining o'zi belgilashi, va ish haqi platforma orqali to'lanishi bilan tavsiflanadi. Qonunchilikda bu faoliyat turiga bir xil yondashuv mavjud emas, huquqiy maqom aniq emasligi ko'p hollarda ijtimoiy himoya masalalarini yechimsiz qoldiradi.

Gibrildan bandlikni huquqiy maqom sifatida tan olish tendensiyasi Kanada, Avstraliya va Yaponianing ayrim hududlarida kuzatilmoqda, bu mamlakatlarda ishchi bir vaqtning o'zida platformadan foydalanib ham faoliyat yuritishi mumkin.

Gibrildan bandlik deganda shaxsning bir vaqtida mehnat shartnomasi asosida rasman ishlashi va bir vaqtida raqamli platforma orqali mustaqil ravishda xizmat ko'rsatishi tushuniladi. Bu holat ko'plab davlatlarda odatiy bo'lib bormoqda. Ammo qonunchilikda gibrildan bandlik alohida maqom sifatida tan olinmagan. Ushbu bandlik turi aniq huquqiy maqomga ega bo'lsa, bu ijtimoiy kafolatlarni ikki manbara asoslangan holda taqdim etish imkonini yaratadi.

BMT va Xalqaro mehnat tashkiloti platformalar orqali ishlayotgan shaxslarning ijtimoiy kafolatlarini kuchaytirish yuzasidan global miqyosda maslahatlar berib kelmoqda.

Ispaniya va Italiya kabi mamlakatlarda platformalar orqali mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni soliq va ijtimoiy sug'urta tizimiga moslashtirish uchun maxsus qonunlar qabul qilingan.

Xorijiy tajribada gibrildan bandlik, o'zini o'zi band qilish va raqamli mehnat shakllari aniq huquqiy asoslar bilan ta'minlangan. Masalan, Estoniya va Fransiyada platforma orqali ishlayotgan shaxslar soliq tizimiga avtomat ravishda bog'lanadi. Ispaniyada 'Riders Law' orqali kuryerlik faoliyati mehnat munosabati sifatida tan olindi. Bu mamlakatlarda platformalar orqali ishlayotgan shaxslar uchun ijtimoiy sug'urta, mehnat himoyasi va huquqiy kafolatlar joriy etilgan.

Xorijiy tajriba shundan dalolat beradiki, platforma mehnatiga munosabatda har bir mamlakat o'z iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy an'analariga asoslangan modelni tanlagan. Misol uchun, Niderlandiyada "fiktiv o'zini o'zi band qilish" tushunchasi joriy etilgan bo'lib, platforma orqali ishlayotgan shaxslar aslida mehnat munosabatlariga xos bo'lган belgilariga ega bo'lsa, ularni xodim deb tan olish imkonini qonun darajasida belgilab qo'yilgan. Buyuk Britaniyada esa Uber ishchilari yurisprudensiya orqali "worker" kategoriyasiga kiritilgan — bu toifa to'liq xodim emas, lekin minimal ijtimoiy kafolatlarga ega.

Bu holatlar shundan dalolat beradiki, platformalar orqali bandlikka nisbatan aralash huquqiy yondashuvlar muvaffaqiyatli qo'llanilayotganini ko'rish mumkin. Bu esa O'zbekiston uchun ham huquqiy eksperimentlarni amalga oshirishga ilhom manbai bo'lishi mumkin.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, quyidagi islohotlar taklif qilinadi. Birinchidan, muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-iyundagi PQ-4742-son «Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori 3-bandini quyidagi jumla bilan to'ldirishni taklif qilinadi – «mehnat shartnomasiga asosan band bo'lган shaxslar bir vaqtning

o'zida ruxsat berilgan faoliyat turlari bilan o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan holda shug'ullanishlari mumkin.»

Mehnat shartnomasi bilan ishlayotgan shaxslarga bir vaqtda raqamli platformalar orqali ham mustaqil faoliyat yuritish huquqi berilishi kerak. Bunda iqtisodiy faollikni oshiriladi va ikki tomonlama daromad manbasi ta'minlanadi. Shuningdek, mobil ilova yoki platforma orqali faoliyat yurituvchi fuqarolar avval o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi kerak. Bu orqali soliq tizimida ochiqlik va norasmiy mehnatning oldi olinadi. Shularni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-iyundagi PQ-4742-son «Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori quyida 3<sup>1</sup> shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar)ni ko'rsatishni nazarda tuguvchi mobil ilovalarda bunday faoliyat (ishlar, xizmatlar)ni ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar ular o'zini o'zi band qilganidan keyin ro'yxatga olinadi – deb to'ldirishni tavsiya qilamiz. Uchinchidan, gibrild bandlik alohida huquqiy maqom sifatida tan olinishi kerak va qonunchilikda belgilanishi lozim. Bu ishchilarga ikki turdag'i faoliyat uchun ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashga sharoit yaratadi. To'rtinchidan, raqamli platformalar foydalanuvchilari to'g'risidagi ma'lumot Davlat mehnat inspeksiyasiga taqdim etilishi lozim. Bu chora orqali hisobga olish, huquqiy himoya va monitoring samaradorligi oshiriladi. Beshinchidan, ijtimoiy sug'urta tizimida o'zini o'zi band qilgan shaxslar ixtiyoriy asosda qatnashishlari uchun soddalashtirilgan mexanizm yaratilishi kerak. Bu pensiya, tibbiy xizmat va boshqa ijtimoiy kafolatlardan keng foydalanishga imkon beradi.

Maqolada tahlil etilgan masalalar raqamli iqtisodiyot sharoitida platformalar orqali bandlikni huquqiy maqomga ega qilish zaruratini ko'rsatadi. Taklif etilgan islohotlar ijtimoiy himoya, soliqqa tortish va huquqiy kafolatlarni kuchaytirishga xizmat qiladi. Xorijiy tajriba bu jarayonda yurtimiz uchun muhim namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, mazkur sohadagi huquqiy boshliqlikni bartaraf etish uchun faqat normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish yetarli emas. Ularning amaliy hayotda to'g'ri qo'llanilishi, manfaatdor tomonlar — davlat organlari, platformalar, fuqarolik jamiyati va ish beruvchilar uyushmalari o'rtaida institutsional hamkorlikni yo'lga qo'yish talab etiladi. Bundan tashqari, raqamli mehnatning rivojlanishi bilan bog'liq tahdidlar — masalan, algoritmik nazorat, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasizligi va mehnat huquqlarining buzilishiga qarshi aniq huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur. Ushbu maqolada ko'tarilgan masalalar asosida ilgari surilgan takliflar O'zbekistonda raqamli mehnatni huquqiy asosda tartibga solish bo'yicha ilmiy va amaliy muhokamalarni chuqurlashtirishga xizmat qilishi mumkin.

### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

- Лютов Н.Л. Гибкие формы занятости: проблемы правового регулирования. – М.: Проспект, 2019.
- De Stefano V. 'The Rise of the Just-in-Time Workforce' // Comparative Labor Law & Policy Journal. – 2016.
- ILO. Non-standard forms of employment report. Geneva: ILO, 2016.
- Черниловская И.А. Правовое положение самозанятых лиц в условиях цифровой экономики // Трудовое и социальное право. – 2020. – № 12. – С. 56–64.
- Ботвина А.В. Правовая природа работы через онлайн-платформы как формы нетипичной занятости // Российский юридический журнал. – 2023. – № 3. – С. 65–75.

6. Weckerle B. Gig Work und soziale Absicherung: Regulierungsvorschläge für Plattformbeschäftigung // Sozialer Fortschritt. – 2021. – № 4. – S. 40–48.
7. Холмирзаев И. С. Рақамли иқтисодиёт шароитида меҳнат ҳуқуқининг ривожланиш истиқболлари // Юридик фанлар ахборотномаси. – 2022. – № 1. – Б. 20–27.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº S/5 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).